



O'RTA OSIYO AHAMONIYLAR DAVLATI TARKIBIDA

Normamatov Suxrob

Nomozov Elbek

Shahrisabz davlat pedagogika insituti

tarix yo'nalishi 1-kurs 2-24 guruh talabasi

normamatovsuhrob88@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola Ahamoniylar davlati o'rta osiyoga yurishlari xaqida tarixiy malumotlar birib o'tamiz va Ahamoniylar davlatiga qadimgi fors podshohlari xonadoni - axomaniylar vakili Kir II asos solgan. Miloddan avvalgi 558 yil Kir II fors qabilalari ittifoqiga rahbar bo'lib, 553 yil midiyaliklar hukmronligiga qarshi qo'zg'olon ko'targan. Forslar 550 yil g'alaba qozonib va Midiyani egallab keyingi uch yil mobaynida sobiq Midiya davlati tarkibiga kirgan mamlakatlarni bosib olganlar, 546 yil esa Lidiya va Kichik Osiyodagi yunon shaharlarini zabt etganlar. 545-539 yillar oralig'ida Kichik Osiyoning katta qismi, 538 yilda Bobil, 525 yilda Misr, 519-512 yillar oralig'ida Egey dengizidagi orollar, Frakiya, Makedoniya va Hindistonning shimoli-g'arbiy qismi bo'ysundirilganligi haqida yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Axomaniylar, Doro I, Kichik Osiyo, Bobil, Finikiya, Misr kirib, Eronni, Hind daryosi, Egey va O'rta dengizgacha, Osiyo, Egey.

Abstract: This article is historical about the march of the Achaemenid state to Central Asia the information goes together, and the Achaemenid state was founded by Cyrus II, the representative of the ancient Persian royal family - the Achaemenids. In 558 BC,



Cyrus II became the leader of the alliance of Persian tribes, and in 553 BC he revolted against the rule of the Medes. The Persians won in 550 and captured Midiwa. During the next three years, they conquered the countries that were part of the former Midiwa state, and in 546 they conquered the Greek cities of Lydia and Asia Minor. Covers the subjugation of most of Asia Minor between 545 and 539, Babylon in 538, Egypt in 525, Aegean islands, Thrace, Macedonia and northwestern India between 519 and 512. .

Key words: Achaemenids, Darius I, Asia Minor, Babylon, Phoenicia, entering Egypt, Iran, Indus River, Aegean and to the Mediterranean Sea, Asia, Aegean.

Аннотация: Данная статья историческая о походе государства Ахеменидов в Среднюю Азию. сведения совпадают, а государство Ахеменидов было основано Киром II, представителем древнего персидского царского рода - Ахеменидов. В 558 г. до н.э. Кир II стал предводителем союза персидских племен, а в 553 г. до н.э. поднял восстание против господства мидян. Персы победили в 550 г. и захватили Мидиву. В течение следующих трех лет они завоевали страны, входившие в состав бывшего государства Мидива, а в 546 г. завоевали греческие города Лидии и Малой Азии. Охватывает подчинение большей части Малой Азии между 545 и 539 годами, Вавилона в 538 году, Египта в 525 году, Эгейских островов, Фракии, Македонии и северо-западной Индии между 519 и 512 годами.

Ключевые слова: Ахемениды, Дарий I, Малая Азия, Вавилон, Финикия, вход в Египет, Иран, река Инд, Эгейское и Средиземное моря, Азия, Эгейское море.

Kirish: Ahamoniylar davlati — qadimgi dunyoning eng yirik davlatlaridan biri (miloddan avvalgi 558-330). Ahamoniylar davlati hududi Eronni va Hind daryosidan Egey



va O'rta dengizgacha bo'lgan oraliqdagi Osiyo mamlakatlarini, shuningdek, Misr, Liviya va Bolqon yarim orolning bir qismini bosib olish natijasida tashkil topgan.¹

Axomaniylar davlati Doro I davrida shakllangan murakkab byurokratik tizim orqali boshqarilgan. Doroning ma'muriy-pul islohotlari bosib olingan mamlakatlar ustidan boshqaruv va nazoratni yanada takomillashtirdi: davlat 20 ta harbiy-ma'muriy satrapiya (okrug)larga bo'linib, ularning tepasida maxsus amaldorlar (satraplar) turgan. Ular fors podshosiga ulkan miqdorda soliqlar (pul va natura holda) to'lashgan. Doro 1 davrida yagona tanga pul birligi 8,4 g oltin og'irligidagi doriq joriy qilingan. Sikl (1/20 doriq) mayda kumush tanga vazifasini o'tagan. Axomaniylar davlati etnik tarkibi va ijtimoiy ukladi bo'yicha turli-tuman bo'lgan. Uning tarkibiga Kichik Osiyo, Bobil, Finikiya va Misr kirib, ularning qishloq xo'jaligi va hunarmandchiligida qullar mehnatidan keng foydalanilgan. Iqtisodiy jihatdan shunday rivojlangan mamlakatlar qatorida forslar saltanati tarkibiga Frakiya va Makedoniya kabi viloyatlar, shuningdek urug'chilik tuzumining yemirilishi bosqichida turgan ko'chmanchi arab va skif qabilalari ham kirgan. Fors ma'muriyati zabt etilgan mamlakatlarda eski mahalliy qonunlar, urf-odatlar, dinlar, pul tizimi, o'lchov-og'irlik tizimi, yozuv va tillarni saqlab qolgan.² Mahalliy tillar qatorida Axomaniylar davlatining rasmiy idora tili bo'lgan oromiy tili ham keng tarqalgan. Eronda qadimgi fors va oromiy tilidan tashqari ma'muriy ehtiyojlar uchun elam tilidan ham keng foydalanishgan. Forslar ko'pgina finikiy va yunon shaharlariga muxtoriyat berib, ayrim mamlakatlarda (masalan, Kilikiya, Sug'diyona va boshqalar) mahalliy shohlar va hokimlar sulolasini saqlab qolganlar, ibodatxonalarni soliq va to'lovlardan ozod etganlar. Persepol bilan bir qatorda axomaniylar Bobil, Suza va Ekbatanani poytaxt qilishgan. Axomaniylar davlati madaniyati va san'ati Eron madaniy an'alarini Yunoniston, Ossuriya, Misr va boshqa mamlakatlar an'analari bilan chog'ishtirmasidan iborat bo'lgan. Forslarning o'zi saltanatda mumtoz

¹ 1A.S.Sagdullayev - O'zbekiston davlat boshqaruvi tarixi (qadimgi davrlardan XIX asrning o'rtalarigacha). 37-42-betlar. Toshkent-2006

² Arxeologlar hikoya qiladi. To'plam. Toshkent, 1974



mavqega ega edilar. Ular soliqlar va majburiy ishlardan ozod etilganlar. Fors zodagonlari eng muhim harbiy va fuqarolik lavozimlarini egallashgan. Fors shohlari, ularning qonqarindoshlari, satraplar va amaldorlar Eron, Kichik Osiyo, Bobil, Misr va boshqa mamlakatlarda qullar mehnatiga asoslangan katta xo'jaliklarga ega bo'lishgan. Axomaniylar davlati barqaror iqtisodiy asosga ega bo'lmagani tufayli beqaror harbiy-ma'muriy birlashma edi, u faqatgina qurol kuchi yordami bilangina turli xalqlarni davlat tarkibida tutib turishga asoslangandi. Axomaniylarning harbiy qudrati zaiflashishi bilan ularning davlati parchalanib keta boshlagan. Misr, Bobil, Midiya, Kichik Osiyo va boshqa mamlakatlarda ko'plab qo'zg'olonlar ko'tarilgan (mas, 522 yilda Midiyada Gaumata qo'zg'oloni va Marg'iyonadagi qo'zg'olon, 500 - 493 yillarda kichik osiyolik yunonlar qo'zg'oloni, 405 yil Misrdagi qo'zg'olon). Miloddan avvalgi 5-asr oxiridan boshlab satraplar muntazam suratda o'zaro urush olib borganlar, ba'zan esa hatto podshohning o'ziga ham qarshi qurol ko'targanlar. 500 449 yillardagi yunon-fors urushlari davridayoq fors qo'shinining jangovarlik qobiliyati anchagina yo'qotilgan. Miloddan avvalgi 330 yil Aleksandr Makedonskiy qo'shini zarbalari ostida Axomaniylar davlati qulagan. Turon xalqlarining Axomaniylar davlatiga qarshi olib borgan kurashlari haqida: qarang To'maris, Shiroq, Marg'iyona qo'zg'oloni.³Qadimgi dunyoning eng yirik davlatlaridan biri (miloddan avvalgi 558 - 330). Axomaniylar davlati hududi Eronni va Hind daryosidan Egey va O'rta dengizgacha bo'lgan oraliqdagi Osiyo mam-lakatlarini, shuningdek Misr, Liviya va Bolqon yarim orolning bir qismini bosib olish natijasida tashkil topgan. Axomaniylar davlati Doro I davrida shakllangan murakkab byurokratik tizim orqali boshqarilgan. Doroning ma'muriy-pul islohotlari bosib olingan mamlakatlar ustidan boshqaruv va nazoratni yanada takomillashtirdi: davlat 20 ta harbiy-ma'muriy satrapiya (okrug)larga bo'linib, ularning tepasida maxsus amal-dorlar (satraplar) turgan. Ular fors podshosiga ulkan miqdorda soliqlar(pul va natura holda) to'lashgan. Doro I davrida yagona tanga pul birligi 8,4 g oltin

³. Asqarov A, Albaum L. Poseleniye Kuchuktepa. Toshkent, 1970 yil.



og'irligidagi doriq joriy qilingan. Sikl (1/20 doriq) mayda ku- mush tanga vazifasini o'tagan. Forslar ko'pgina fi-nikiy va yunon shaharlariga muxtoriyat berib, ayrim mamlakatlarda (mas, Kilikiya, Sug'diyona va boshqalar) mahalliy shoxlar va hokimlar sulolasini saqlab qolganlar, ibodatxonalarni soliq va to'lovlardan ozod etganlar. Fors shohlari, ularning qon-qarindoshlari, satraplar va amaldorlar Eron, Kichik Osiyo, Bobil, Misr va boshqa mamlakatlarda qullar mehnatiga asoslangan katta xo'jaliklarga ega bo'lishgan. Axomaniylar davlati barqaror iqtisodiy asosga ega bo'lmagani tufayli beqaror harbiy-ma'muriy birlashma edi, u faqatgina qurol kuchi yordami bilangina turli xalqlarni davlat tarkibida tutib tu-rishga asoslangandi.⁴

Forslar 550 yil Midiyani egallab keyingi uch yil mo-baynida sobiq Midiya davlati tarkibiga kirgan mamlakatlarni bosib olganlar, 546 yil esa Lidiya va Kichik Osiyodagi yunon shaharlarini zabt etganlar. 545-539 yillar oralig'ida Kichik Osiyoning katta qismi, 538 yilda Bobil, 525 yilda Misr, 519-512 yillar oralig'ida Egey dengizidagi. orollar, Frakiya, Makedoniya va Hindistonning shimolig'arbiy qismi bo'ysundirilgan. Kir II Parfiya Baqtriya Marg'iyonanai bosib oldi. Mil avv 530-yilda massagetlarga muvofaqiyatsiz yurish qildi va o'limiga sabab bo'ldi. Ahamoniylar podsholigi satraplari, shu jumladan O'rta Osiyo satraplari pul soliqlaridan tashqari natura shaklida ham o'lpon to'lashlari shart bo'lgan. Bu haqda, Doro I ning Suzdagi saroy qurilishi uchun Baqtriyadan oltin, Sug'diyonadan lojuvard kumush titrat, Xorazmdan yarqirama rangdor toshlar keltirilgani tarixdan ma'lum. O'rta Osiyoning janubiy viloyatlari Iskandar Zulqaynar tomonidan bosib olingach, hamda Salavkiylar va Yunon-Baqtriya podsholigi tarkibiga kirgach, bu hududda ellinistik dunyoga xos xususiyatlar tashkil topgan. Bu davlatlar boshqaruvi va davlat idoralari haqidagi ma'lumotlarni keyingi mavzularimizda bayon qilamiz. Asosiy mezonlar: qonun, shartnoma:

⁴. Borisovskiy A.I. Qadimgi sheye proshloye chelovechestva. Moskva. fan, 1980 yil.



Safa-Isfaxoniy qayd etganidek, "qonun tushunchasi zardushtiylikning eng ilk bosqichlarida uning muhim qismi bo'lgan..⁵

XULOSA

Xulosa qilib aytganda Eronliklarning qadimgi ajdodlari dastlab tog-u tosh, suv, daraxt va har xil hayvonlarni ulug'laganlar. Tabaqaviy jamiyat davlatlar tashkil topishi munosabati, xojalikning rivojlana borishi natijasida e'tiqodda ham ozgarishlar sodir bo'la boshlagan. Xususan elamliklar Pinker degan xudolar onasini ulug'lab, unga e'tiqod qilganlar. Ularda Inshushinak Suza shahri homiysi yer osti xudosi bo'lgan. Naxunt esa quyosh va adolat xudosi hisoblangan. Eronning ko'p joylarida totemizm, fetishizm kabi ibtidoiy din shakllari uzoq vaqtgacha saqlanib qolgan edi.⁶ Midiya podshosi Astiag davrida zardushtiylik keng tarqala boshlaydi. Bu dinning asoschisi Zardusht bolib, din shu kishining nomi bilan zardushtiylik deb atalgan. Zardushtiylik dini kitobi «Avesto» bo'lib, unda Eron va Turonda yashagan xalqlarning tarixi, xojaligi, diniy e'tiqodi va madaniyati haqida ko'p ma'lumotlar bor. Eron xalqlari Misr, Bobil. Elam xalqlari madaniyatidan bahramand bo'lib, ozlariga xos madaniyat yaratganlar. Bu dinda Axuramazda yaxshilik, haqiqat va odillik xudosi hisoblangan. Axra-Manyu esa zulmat, o'lim va yomonlik keltiruvchi xudo bolgan ekan. Eroniylar e'tiqodiga kora bu ikki xudo o'rtasida kurash davom etgan. Eroniylar Mitra degan quyosh, Anaxita degan suv va hosildorlik shuningdek, yorug'lik, oy va shamol xudolariga e'tiqod qilganlar. Eron shohi Kserks diniy islohot o'tkazib mayda xudolar, ma budalar va dev-parilarga e'tiqod qilishni taqiqlagan. Axuramazda eronliklarning birdan-bir samoviy tangrisi deb e'lon qilingan⁷

⁵ . Kabirov J, Sagdullayev A.O'rta Osiyo arxeologiyasi. Toshkent, 1990.

⁶ Muhammadjonov A. Qadimgi Buxoro. Toshkent, 1991

⁷ Okladnikov A.P. Paleolit va mezolit Sredney Azii. Vkn. Srednyaya Aziya v epoxu kamnya i bronzi. M.-L., 1966 yil.



Foydalanilgan adabiyotlar.

1. A.S.Sagdullayev - O'zbekiston davlat boshqaruvi tarixi (qadimgi davrlardan XIX asrning o'rtalarigacha). 37-42-betlar. Toshkent-2006
2. Arxeologlar hikoya qiladi. To'plam. Toshkent, 1974.
3. Asqarov A, Albaum L. Poseleniye Kuchuktepa. Toshkent, 1970 yil.
4. Begaliyev, N. X. (2023). THE PROBLEM OF TERMINOLGY IN ETHNOLOGY IN ETHNOLOGICAL RESEARCH. *Oriental Journal of Social Sciences*, 69-72.
5. Begaliyev, N., & Nosirova, K. S. (2024). BOBUR VA BOBURIYLAR DAVRIDA ME'MORCHILIK SOHASINING YUKSALISHI. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 538-546.
6. Бегалиев, Н. (2024). БУХОРО–ҚАРИШИ САВДО ЙЎЛИДА ЖОЙЛАШГАН САРДОБАЛАР. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 141-144.
7. Begaliyev, N., Xumoyun, A., & Shahlo, S. (2024). RTA OSIYO GIDROTEXNIKA INSHOOTLAR TARIXI SARDOBA VA KORIZLAR MISOLIDA. *UNIVERSAL JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES*, 2(9), 57-62.
8. Nurbek, B., & Ruxshona, A. (2023). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XITOIY BILAN DIPLOMATIK MUNOSABATLAR. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 11(10), 25-29.
9. Begaliyev, N., & Qizi, M. R. S. (2024). AMIR TEMUR DAVRIDA TANGA PUL MUNOSABATLARI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 35(1), 204-207.
10. Normamatova, M. (2024). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA BUYUK IPAK YO 'LIDAGI DAVLATLARARO ALOQALAR. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 180-184.
11. Begaliev, N. (2024). THE HISTORY OF THE SARDOBAS: ON THE EXAMPLE OF THE BUKHARA KHANATE. *TAMADDUN NURI JURNALI*, 11(62), 268-270.



12. Baratov, K. (2024). SOME CONSIDERATIONS WITHIN THE CLASSIFICATION OF SOURCES ON THE HISTORY OF NAXHAB. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 11(03).
13. Azamova S. EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.
14. Azamova S. UMUMTA'LIM MAKTAB O 'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING USUL VA VOSITALARI //Interpretation and researches. – 2024.
15. Azamova S. A. PROBLEMS OF FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 743-749.